ILMIY AXBOROT

UDK 821.51.1.11.17 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a181**

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MUHABBAT FALSAFASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ESTETIK TAHLILI

ХАРАКТЕРИСТИКА И ЭСТЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФИЛОСОФИИ ЛЮБВИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

CHARACTERISTIC AND AESTHETIC ANALYSIS OF THE PHILOSOPHY OF LOVE OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Jurayeva Dilafruz Jamurodovna[1]

[1]**Jurayeva Dilafruz Jamurodovna** – Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning muhabbat falsafasi haqidagi qarashlarining yoshlar axloqiy-estetik tafakkurini yuksaltirishdagi o‘rnini masalasiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ma’naviy merosida axloqiy-estetik mazmundagi asarlarida xulqiy go‘zallik va axloq birligi, muhabbat va nafrat, ixtiyor erkinligi va taqdir, yaxshi niyat singari yetakchi tamoyillari yoritilgan.

Аннотация

В статье акцентируется внимание на роли взглядов Захириддина Мухаммада Бабура на философию любви в совершенствовании нравственно-эстетического мышления молодежи. Также в его духовном наследии в произведениях нравственно-эстетического содержания были выделены такие ведущие принципы, как нравственная красота и нравственное единство, любовь и ненависть, свобода воли и судьбы, благие намерения.

Abstract

The article focuses on the role of Zahiriddin Muhammad Babur's views on the philosophy of love in improving the moral and aesthetic thinking of young people. Also in his spiritual heritage, in works of moral and aesthetic content, such leading principles as moral beauty and moral unity, love and hatred, free will and destiny, good intentions were singled out.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, inson, komillik, axloqiy-estetik tafakkur,muhabbat, ishq falsafasi, oshiq, ma’shuqa, she’riyat, falsafa, borliq.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, человек, совершенство, нравственно-эстетическое мышление, любовь, философия любви, любовник, любовница, поэзия, философия, бытие.*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, man, perfection, moral and aesthetic thinking, love, philosophy of love, lover, mistress, poetry, philosophy, being.*

KIRISH

Ma’naviy poklik axloq ziyosidir. Pokiza aql insonni ayb va nuqsonlardan qutqaradi hamda hayotga, yashashga havasni yuksaltiradi. Axloqiy poklik inson aqliy kamolotida asosiy mezondir. Inson uning yordamida nafaqat ta’ma va molparastlikdan uzoqda bo‘ladi, balki barcha illatlardan ham uzoqda bo‘ladi. Shu sababli ham milliy poklanishni yoshlarda shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi va ulardagi ma’naviy-axloqiy tarbiyani berishda ajdodlarimizdan qolgan boy ma’naviy meros (qomusiy va hadisshunos olimlar hayoti-faoliyati, shoir-yozuvchilar hayoti-faoliyati, tarixchi-faylasuflarimiz asarlari, aziz avliyolarimiz turmush tarzi, Vatan qahramonlari-yu, davlat arboblari faoliyati va shu kabilar), Ota nasihati (“Qobusnoma”, “Temur tuzuklari”, “Rushnoinoma”, “Pandnoma”, “Sad pand”, “Hukmdorga o‘gitlar”, “Boburnoma”, “Qirq bir maslahat” va shu kabilar), Ona suti, Vatan qayg‘usi (Shiroq, To‘maris, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik va shu kabilar), Vatan tuyg‘usi (Pahlavon Mahmud, Abdulla Qodiriy va shu kabilar), Vatan sog‘inchi (Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Furqat va shu kabilar) va millat qoni hamda joni zamonaviylik tamoyillari bilan uyg‘unlashishi lozim. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, *“..... hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”*

Inson va uning shakllanish va o‘zini o‘zi anglash yo‘llari, insonning axloqiy-ma’naviy kamolot kategoriyalari, ilmiy e’tiqodi, muhabbati haqidagi ta’lim-tarbiya bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ta’lim, ilm-fan, iymon-e’tiqod va ezgulik, ishq va muhabbat - o‘zlikni bilishga va milliy o‘zlikka olib keladi.

ILMIY AXBOROT

Muhabbat falsafasi o‘ziga xos ilohiy ishq, muhabbat borasidagi insoniy his-tuyg‘ularni o‘rgatadigan falsafiy yondashuvdir. Muhabbat falsafasining asoschisi Empedokl hisoblanadi**[1;232]**. Keyin Aflotun bu falsafiy yo‘nalishni yanada kengaytirgan holda falsafiy jihatdan tahlil qilgan. Ibn Sino “Muhabbat risolasi”ni yozgan**[2;176]**. Ibn Hazm “Tauk al-xamama” kitobining muallifi hisoblanadi**[3;240]**. Arab tilidagi “Kitob-uz-Zuhra” da Platoncha ishq nazariyasi talqin qilingan**[4;165]**.

Taniqli boburiyshunos olim Qamar Rayis ta’biri bilan aytganda; “Bobur lirikasining katta qismi husn va ishq lavhalaridan iborat. Uning bir tomonida visol onlaridan shodmonlik va hayajon tursa, ikkinchi tomonidan ma’shuqa vasliga erisha olmagan oshiq yurakning alam-sitamini kuzatamiz. Bularning har ikkisi shoirning jo‘shqin hissiyotlarining ko‘zgusidir” **[5;39]**.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zahiriddin Muhammad Bobur xalqimizning axloqiy va ijtimoiy-siyosiy fikr rivojiga qimmatli hissa qo‘shgan. U hamisha insoniy fazilatlarni rag‘batlantirib, targ‘ib qilgan. Mirzo Bobur asarlarida o‘zining axloqiy va ijtimoiy qarashlarini yanada jasorat bilan ifodalagan. Z.M.Bobur hayoti va ijodini o‘rganish borasida bir qator kitoblar, risolalar yozildi, mutafakkir ijodini badiiy-falsafiy jihatlarini o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, N.Komilov, A.Zohidiy, N.Jo‘rayev, M.Mamatov, Q.Ro‘zmatzoda, O.G‘aybullayev, A.Samadov kabi faylasuf olimlarning tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Ushbu maqolada umumiy o‘zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, qiyosiy tahlil, intensional-teleologik tushuntirish, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Falsafani ifodalash yo‘li fan va tafakkur tili, she’r ifodalash usuli esa tasavvur yo‘lidir. Lekin haqiqat shuki, ilm-fan va adabiyotning eng yaxshi asarlari inson borlig‘ining ana shu ikki manbasi – tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi natijasida yaratilgan va yaratiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning muhabbat falsafasi aynan she’r va o‘y va g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, uni ta’sirchan va keng qamrovli uslub va rang-baranglikda ifodalagan. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, Boburni borliq falsafasini teran tafakkur va aks ettiruvchi va uni eng ta’sirli she’riy motiv va obrazlargina qiziqtiradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ko‘pgina she’rlarida inson, tabiat va predmet o‘rtasidagi munosabatlar tasviri mavjud bo‘lib, u mazmunni rang-barang ranglarda ifodalash yoki tasvirlashga xizmat qiladi. Hozirgacha har biri o‘ziga xos she’riy xususiyatga ega bo‘lgan, shoir ruhiy hayotining turli holatlarini eng mos badiiy tasvir vositalari, yangi metafora bilan boyitilgan. Falsafadan xabardor bo‘lish shoirning hayotga, uning turli ko‘rinishlariga bo‘lgan qarashlarini chuqurlashtiradi, dunyo va inson haqidagi bilimimizga yangilik qo‘shishi mumkin bo‘lgan o‘sha on va uning ko‘rinishlarini tan olishga yordam beradi. Chunki jahon shoiri va faylasufi logann Gyotening fikricha, “adabiyot hayot namoyon bo‘lgan eng yuksak lahzalar in’ikosidir”**[6;363]**. Shubhasiz, Mirzo Bobur muhabbat falsafasining o‘ziga xosligi va ahamiyatini topishga harakat qilgan va uni o‘ziga yarasha ohang, jo‘shqin, eng nozik o‘ylar, bedor ohang bilan mangulik maydoniga tortganligi, shubhasiz, borliq va zamon falsafiy tushunchasini ifodasidir.

Sevgi - bu inson munosib hayot kechirishi mumkin bo‘lgan yagona sevgidir va nafaqat hayot, hatto o‘lim, ya’ni munosib xizmat qilish ham unga bog‘liqdir. Muhabbatga shunday yuksak maqom berib, unda hayotning sababi va mohiyatini ko‘rgan shoir muhabbatsiz hayotni ko‘rsa, qanday chidab bo‘lmas ahvolga tushib qoladi. Masalan, “Xerald Lembning yozishicha, Ma’suma Boburga oshiq bo‘lib qolgan. Hirotdagi uchrashuvlar ko‘ngildagi ishq uchqunini alangalatib yuborgan. Keyinroq va’daga ko‘ra Bobur uni nikohiga olgan. U bilan xursandchilik mamnuniyatda kun kechirgan. Ammo taqdir unga vafo qilmagan ekan, bir qizni dunyoga keltirgach, hayotdan ko‘z yumadi. Qizcha omon qoladi. Bobur Ma’sumaning xotirasiga qizchaga uning ismini berdi. Farzandiga doimo mehru oqibatda bo‘ldi” **[7;26-27]**.

Zahiriddin Muhammad Boburning estetik tushunchasidagi sevgi – sadoqat, vafodorlik, oliyjanoblik. Shoir ishq-muhabbatni mol-u dunyo, mansab va dunyodagi barcha huzur-halovatlardan yuqori qo‘yadi. Bobur o‘zining ajoyib g‘azallarida original badiiy vositalar orqali mahbuba qiyofasini ma’naviy go‘zal, mazmunan boy, zohiran mislsiz chiroyga ega qilib tasvirlaydi:

Jonima o‘t soldi ul ruxsorayi zebo yana,
Ko‘ngluma ul zulf bo‘ldi moyayi savdo yana.
Ko‘rsatib ruxsoru zulfin ul pariy paykar manga,
Jonu ko‘nglumni qilibdur volavu shaydo yana.

Yor kuyindagi tom sensan manga pushtu panoh,
Soyayi lutfingni sol, mun sanga keldim to yana.
Shodlikniyu farog‘atni qo‘yub oshiq bo‘lub,
Mehnatu g‘amni qilibmen o‘zuma paydo yana.
Yorg‘a qulmen degach Boburni rasvo ayladi,
Tengri mendek bandasini qilmasun rasvo yana**[8;330-331]**.

Mirzo Bobur ishqning eng nozik hissiyotlarini, insoniy sevgining barqarorligini kuylar ekan, u o‘z davridagi jamiyat illatlariga dadillik bilan qarshi chiqadi. Ularning kirdikorlarini fosh qiladi. Shoir she’rlarida hayotni tor ma’noda tushunuvchilar qattiq tanqid ostiga olinadi. Ularning o‘rinsiz ta’na va da’volariga qarshi o‘tkir qalami qaratiladi. Bobur yor hajrida barcha huzur-halovatlardan ham voz kechadi:

Hajr o‘lturdi meni, anglasam erdi muncha,
Do‘stlar, yordin ayrilmas edim o‘lguncha.
Zohido, do‘zax o‘tidin meni ne qo‘rqutasen,
Hajr o‘ti qoshida ko‘rmasmen ani uchquncha.
Ul quyosh mehrini bir zarra menga ko‘rguzmas,
Kavkabi ashk to‘kub bo‘lsam agar garduncha.
Husnda ortuq agar bo‘lsa yuzi Laylodin,
Men taqi bormen aning ishqida yuz Majnuncha.
Rindlar oldida hayvon suyini ko‘p o‘chasen,
Ey Xizr, bormu ekin ul su mayi gulguncha.
Boburo, she’ringga gar solsa quloq ul shohing,
Bo‘lg‘usidur so‘zingga qadr duri maknuncha**[9;67]**.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida haqqoniy tasvir uslubi hissiy tasvir uslubidan ustunlik qiladi. Shuning uchun uning g‘azallarida estetika juda teran ifodalanadi. Misol uchun, shoirning quyidagi g‘azalini olaylik:

Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux bu chehrayi zardim.
Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Oyog‘ingg‘a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.
Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,
Men archa dahr bog‘idin xazon yafrogidek bordim.
Xazondek qon yoshim, sorig‘ yuzumdin el tanaffurda,
Ba har range, bihamdillah, ulusdin o‘zni qutqordim.
Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,
Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.
Ulusning ta’nu ta’rifi menga, Bobur barobardur,
Bu olamda o‘zumni chun yamon-yaxshidin o‘tkardim**[10;135]**.

Mazkur g‘azal oshiqona mavzuda bo‘lib, shoir ma’shuqaning iltifotsizligidan shikoyat qiladi. Oshiq ma’shuqaning gul yuziga yetishish ishtiyoqida xazondek sarg‘ayganligini ta’kidlab, lolaruh ma’shuqadan uning sarg‘aygan chehrasini ko‘rib iltifot qilishni so‘raydi. Ma’shuqaning iltifotiga sazovor bo‘lmagan oshiq hayotdan kechishga ham rozi, lekin bunda ma’shuqani qoralamaydi, aksincha, unga baxt va «latofat gulshanida xurram»lik tilaydi.

Ilm- fanda, ayniqsa, psixologiyada qanchalik o‘rganilmasin, sevgi nima ekanligi va u qanday qudratga ega bo‘lmasin, u baribir “insonlik siri” bo‘lib qolmoqda. Tafakkur va ongning rivojlanish darajasiga qarab, sevgi har safar o‘zining funksional ahamiyatini, mazmunini va dolzarbligini o‘zgartiradi. Shaxsning tafakkuri, bilimi, dunyoqarashi taraqqiyot jarayonida o‘zgargan sari, odamlarning sevgi haqidagi fikr va qarashlari ham yanada ilg‘or va to‘g‘ri shaklga o‘zgaradi. Shu boisdan ham Mirzo Bobur Husayn Boyqaro saroyi shoirlaridan biri Osafiyning ishq va hol ilmidan borasidagi ijodini keskin tanqid qilib shunday yozadi: “She’ri rang va ma’nidin holi emastur. Agarchi ishq va holdin bebahradur” **[11;241-242]**.

Bobur komillikni ishq va g‘ayrat bilan bog‘laydi. Uning fikricha, johilning rohatini komil insonning zavqi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi: “Komil bo‘lmagan kishi zavqga ega bo‘lolmaydi . Har bir lazzatning miqdori kamolot darajasiga bog‘liqdir” **[13;134]**. Bobur insonning dunyoga munosabatining ikkinchi yo‘nalishi – aksiologik jihati haqida fikr bildirar ekan, jarayonga baho berar

ekan, menimcha, yana bir qiziq jihatga to‘xtalib, odam nimanidir yaxshi, bir narsani yomon deb hisoblaydi, deb yozadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Boburning muhabbat falsafasini zamonamizning falsafa va estetik talablari nuqtai nazaridan tahlil qilinib, uning insonga, insoniyatga muhabbatining dunyoviy xarakteri, insoniyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan ilg‘or qismi, unga nimalar berishi, zamonaviy inson, zamonaviy yosh, zamonaviy oshiq va uning g‘oyaviy-estetik tarbiyasida qanday ishtirok etishi kabi masalalarni birinchi o‘ringa olib chiqish kerak. Ikkinchidan, Bobur sheriyatida tabiiy go‘zallik inson go‘zalligi oldida so‘nib, o‘lik holga keladi va shu tariqa inson go‘zalligi barcha go‘zallikning mezoni va tayanch toshiga aylanadi. Uchinchidan, Boburni insonparvar ijodkor sifatida fikrlashga majbur qiladigan asosiy muammolardan biri insonning nodonligi, beparvoligi kabi ijtimoiy illatdir. Shoirning ko‘plab asarlari o‘z zamondoshini jaholat uyqusidan uyg‘otish, unga insoniylik sha’nini aytishga bag‘ishlangan. Bobur o‘z zamondoshlarini ogoh bo‘lishga, o‘ziga yuklangan yuksak tarixiy-insonparvarlik missiyasini anglab, ado etishga chaqiradi.

Bugungi kunda insonni tarbiyalash, unga ta’lim berish, yuksak qadriyatli, dunyoqarashi keng qamrovli chuqur, bilimdon hamda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash, ayniqsa, dolzarb masaladir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni ijtimoiylashtirish, uni har tomonlama shakllantirish, kamolga yetkazish, rivojlantirish eng muhim vazifadir. Shaxsni ijtimoiy hayotga yanada faolroq jalb etish va uni barkamol qilib voyaga yetkazish har qanday jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Xalqimizning boy o‘tmishi va o‘tkir tafakkuri bilan yaratilgan, ma’naviy qadriyatlari, butun jahon qadriyatlariga qo‘shilgan ma’naviy merosiga nazar tashlasak, bu masalalar bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligini anglaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Якубанис Г., Гельдерлин Ф. Эмпедокл. Смерть Эмпедокла. К.: СИНТО. 1994. - 232 с. (Yakubanis G., Hölderlin F. Empedocles. Death of Empedocles. K.: SINTO. 1994. - 232 p.)
2. Серебряков С.Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. – Тбилиси: Мецниереба, 1976. - 176 с. (Serebryakov S.B. Treatise of Ibn Sina (Avicenna) on love. - Tbilisi: Metsniereba, 1976. - 176 p.)
3. Ибн Хазм. Ожерелье голубки. Пер. с араб. яз. М. А. Салье. Под ред. И. Ю. Крачковского. М.: Восточная литература, 1957. - 240 с.(Ibn Hazm. Dove necklace. Per. from Arabic. lang. M. A. Salie. Ed. I. Yu. Krachkovsky. Moscow: Eastern Literature, 1957. - 240 p.)
4. Махмадова М.Ф. Философия любви Хафиза : диссертация ... кандидата философских наук. - Душанбе, 1999. - 165 с.(Makhmadova M.F. Hafiz's Philosophy of Love: Dissertation ..PhD in Philosophy. - Dushanbe, 1999. - 165 p.)
5. Qamar Rayis. Bobur shaxsiyati va she’riyati. – Andijon: “Andijon nashriyoti”, 2007. – B.39. (Qamar Rais. Babur's personality and poetry. - Andijan: "Andijan publishing house", 2007. - P.39.)
6. Горохов П.А. Философские основания мировоззрения Иоганна Вольфганга Гёте : диссертация ... доктора философских наук. - Екатеринбург, 2003. - 363 с.(Gorokhov P.A. Philosophical foundations of the worldview of Johann Wolfgang Goethe: dissertation ... Doctor of Philosophy. - Yekaterinburg, 2003. - 363 p.)
7. Qamar Rayis. Bobur shaxsiyati va she’riyati. – Andijon: “Andijon nashriyoti”, 2007. – B.26-27. (Qamar Rais. Babur's personality and poetry. - Andijan: "Andijan publishing house", 2007. - P.26-27.)
8. Nizomiddinov N.G‘. Buyuk boburiylar tarixi (XVJ-XIX asr). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.330-331. (Nizomiddinov N.G'. History of the Great Baburids (XVJ-XIX century). Monograph. - Tashkent: Science and technology, 2012. - P.330-331.)
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – Toshkent: Fan, 1994. –B.67. (Zahiruddin Muhammad Babur. Devon. - Tashkent: Science, 1994. - P.67.)
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – Toshkent: Fan, 1994. –B.135.(Zahiruddin Muhammad Babur. Devon. - Tashkent: Science, 1994. - P.135.)
11. Zahiriddin Muhammad Bobir. Bobirnoma. Nashrga tanyorlovchilar: Porso Shamsiyev Sodiq Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1960. – B.241-242.(Zahiruddin Mohammad Babir. Bobirnama. Publishers: Porso Shamsiev Sadiq Mirzaev. - Tashkent: Science, 1960. - B.241-242.)
12. Qudratullayev.H. Boburning adabiy-estetik olami. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – B.134 (Kudratullaev.H. Babur's literary and aesthetic world. - Tashkent: Spirituality, 2018. - P.134.)
13. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – T. 4. – №. 84. – C. 164-167.
14. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50 (Safarov A. I., Xakkulov N. K. Characteristic qualities of a perfect person in Sufism // Modern science as a socio-political factor in the development of the state. - 2019. - pp.48-50).